



UDK:372.8

**Ulug‘bek JABBAROV,**  
*O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD*  
*E-mail: jabborovulugbek1985@gmail.com*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti A.Jabborova taqrizi asosida*

### TA'LIM ISLOHOTLARI SHAROITIDA GENDERGA YO'NALTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH IMKONİYATLARI

Аннотация

Maqolada respublikamizda gender tenglikga erishish strategiyasini amalga oshirish mexanizmlari, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish masalasida amalga oshirilayotgan ishlar haqidagi masalalar bayon etilgan. Shuningdek, genderli yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muassasalarining vazifasi, shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, ta'lim muloqoti jarayonida gender ijtimoiy moslashuvi masalalari muhokama etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Gender, gender ta'lim, gender tenglik, jins, tenglik, teng huquqlilik.

### ВОЗМОЖНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ ГЕНДЕРНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УСЛОВИЯХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ РЕФОРМ

Аннотация

В статье рассматриваются механизмы реализации стратегии достижения гендерного равенства в нашей республике, проводимая работа по достижению равных прав и возможностей женщин и мужчин. Также рассматриваются задачи образовательных учреждений, организованных на основе гендерного подхода, социальное развитие личности и вопросы гендерной социальной адаптации в процессе образовательного диалога.

**Ключевые слова:** Гендер, гендерное образование, гендерное равенство, пол, равенство, равные права.

### OPPORTUNITIES FOR ORGANIZING GENDER-ORIENTED EDUCATION IN THE CONTEXT OF EDUCATIONAL REFORMS

Annotation

The article describes the mechanisms for implementing the strategy for achieving gender equality in our republic, the work being carried out to achieve equal rights and opportunities for women and men. Also, the tasks of educational institutions organized on the basis of a gender approach, the social development of the individual, and the issues of gender social adaptation in the process of educational dialogue are discussed.

**Key words:** Gender, gender education, gender equality, sex, equality, equal rights.

**Kirish.** So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarini modernizatsiya qilish, shuningdek, ilm-fan, ta'lim, madaniyat va sog‘liqni saqlash sohalarini jadal rivojlantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmog‘da. Bu jarayonda inson kapitalini rivojlantirish, aholining turmush darajasini yuksaltirish, fuqarolarning, ayniqsa, yoshlar va ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda jamiyatimizning biror sohasini xotin-qizlarning faol ishtirokisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ayollar iqtisodiyotda, siyosatda, fan va ta’limda, sog‘liqni saqlashda, madaniyat va san’atda beqiyos mehnati bilan Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Ayniqsa, ma’naviy barkamol, komil avlodni tarbiyalashda, oilaviy qadriyatlarini mustahkamlashda, milliy an’analarimizni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishda ayollarning tutgan o‘rni o‘zgarmas va benazirdir.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan so‘nggi yillarda ayollar manfaatlarini himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini ta’minlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirishga qaratilgan qator Farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Jumladan, xotin-qizlarning tadbirkorligini rivojlantirish, ularni ish bilan ta’minlash, yetakchilik

qobiliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini kuchaytirish bo‘yicha kompleks dasturlar amalga oshirilmog‘da. Bunday chora-tadbirlar ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash, ularning salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish hamda mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yangi O‘zbekistonda ayollarning ilm-fan sohasidagi faolligi va jamiyatdagi tutgan o‘rni tobora yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Bu holat, avvalo, ayollar intellektual salohiyatining jamiyat taraqqiyotida beqiyos kuch ekanidan dalolat beradi. Shu bois, barkamol avlodni tarbiyalash, ilmiy-innovatsion g‘oyalarni hayotga tatbiq etish va milliy taraqqiyotning yangi bosqichlarini belgilashda ayollar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklanmoqda.

Ma’lumki, ilm-fan har qanday davlatning taraqqiyoti va farovonligining eng muhim tayanchi hisoblanadi. Bugungi globallashuv va keskin raqobat sharoitida mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga moslashish ilg‘or ilmiy ishlanmalar va texnologik yutuqlardan samarali foydalanishni taqozo etadi. Shu bilan birga, shiddat bilan o‘zgarayotgan davr ilm-fanni yangi bosqichga ko‘tarishni, uning strategik ahamiyatini kuchaytirishni dolzarb vazifa sifatida ilgari surmoqda.

Jamiyat oldida turgan muhim masalalarni hal etishda fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani rivojlantirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, innovatsion iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda ayollarning ilmiy salohiyati va ularning innovatsion rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi alohida ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Madaniyat va ma'rifat sohalarida ayollarning ta'limga oid ko'rsatkichlarini tahlil etish pedagogika tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, ayollar ta'limi tarixining pedagogik xususiyatlari umumiy pedagogika fanining ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, ularning O'rta Osiyo xalqlariga oid ma'lumotlari ham ilm-fan tomonidan chuqur tadqiq etilishini talab etadi.

Qadimiy yozma manbalar shundan dalolat beradiki, ovozi harflarga asoslangan dastlabki yozuv tizimlari neolit davridayoq shakllangan. Ushbu jarayon O'rta Osiyo xalqlarida bilim olish va ta'lim tizimining rivojlanishi uchun muhim asos yaratgan. Sharq xalqlarining boy madaniy merosida uchraydigan mixxat yozuvlari esa aqliy mehnatning qadim zamonlardan qadimgi jamiyat hayotida alohida o'rta egallaganini tasdiqlaydi. Ba'zi tarixiy manbalarda ayollarning yozuvdan foydalanishda erkaklarga nisbatan faolroq bo'lgani qayd etiladi. Masalan, eri bilan safarda bo'lgan bir ayolning onasiga yo'llagan maktubi va yozishmalari shundan dalolat beradiki, qadimda ayollar ham erkaklar qatori o'qish va yozish savodiga ega bo'lganlar. Bu holat ayollar ta'limi va madaniy hayotda faol ishtirok etganligini tasdiqlovchi muhim dalillardan biridir.

Qadimgi Sharq tarixiy va adabiy manbalarida ilm-fan hamda adabiyotga o'z hayotini bag'ishlagan ayollar nomi ham uchraydi. Masalan, Eron shohi Kaykubodning Purin ismli qizi "Avesto" asarining mingdan ortiq sahifasini jamlab, pahlaviy tilga tarjima qilgan haqida ma'lumotlar bor. U zamonasining eng bilimli va ziyoli ayollaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, Faruxru ismli boshqa bir ayol o'zining intellektual salohiyati va ilm-fandagi yutuqlari bilan ajralib turib, qirol saroyida xizmat qilish sharafiga erishgan va tarixda ayol vaziri sifatida nom qoldirgan ilk shaxslardan bo'lgan.

Qadimiy davrlardan boshlab ayollarning ta'lim va madaniy hayotdagi o'rni sezilarli bo'lganini ta'kidlash lozim. Manbalarda ayollar nafaqat oilaviy tarbiya jarayonida, balki jamiyat miqyosida ham bilim tarqatishda faol qatnashganliklari qayd etiladi. Avvaliga ayollar farzandlariga og'zaki ijod – ertak, doston va qo'shiqlar orqali ma'naviy tarbiya bergan bo'lsalar, yozuv yuzaga kelishi bilan dastlabki adabiy asarlarni yaratishda ham bevosita ishtirok etishgan. Vaqt o'tishi bilan esa qadimgi Sharq maktablarida ta'lim mazmuni kengayib, kasbiy mahorat, jismoniy tarbiya, san'at va musiqa asosiy yo'nalishlardan biriga aylangan.

So'nggi yillarda gender tengligi, ayollarning ilm-fan va ta'lim sohasidagi o'rni masalasi xalqaro miqyosda keng tadqiq qilinmoqda. Xususan, BMT, YUNESKO va Jahon banki kabi nufuzli tashkilotlarning ma'ruzalarida ilmiy faoliyatda ayollar ishtirokini kengaytirish, ularning innovatsion jarayonlardagi rolini kuchaytirish global ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Xorijiy adabiyotlarda (M.Nussbaum, S.Harding, J.Butler va boshqalar) gender yondashuv nazariy asoslari keng tahlil etilib, ilm-fan rivojida ayollarning faol ishtiroki nafaqat ijtimoiy tenglik, balki iqtisodiy o'sish va innovatsion taraqqiyotning ham muhim omili ekani ta'kidlanadi. Masalan, S.Harding ilmiy bilishda "gender epistemologiyasi" tushunchasini ilgari surib, ayollarning ilmiy qarashlari jamiyat taraqqiyotida muhim konseptual yangiliklar keltirib chiqarishini asoslab beradi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarda ayollarning ilm-fandagi o'rni haqida qimmatli

fikrlar mavjud bo'lsa-da, hali ham ayrim masalalar yetarlicha o'rganilmagan. Jumladan, Yangi O'zbekiston sharoitida ilmiy-innovatsion jarayonlarda ayollarning ishtirokini kuchaytirish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qo'shayotgan hissasini tizimli tahlil qilish hamda gender tenglik tamoyillari asosida ta'lim siyosatini rivojlantirish masalalari alohida ilmiy izlanishlarni talab qiladi.

**Tahlil va natijalar.** J.Mead o'z tushunchalarini taqdim etayotganda, "rol" atamasini nutq aloqasi jarayonida shaxslarning o'zaro ta'sirini tushuntirish uchun "boshqasining rolini olish" g'oyasini ishlab chiqishda ishlatgan. Darhaqiqat, rol tushunchasi teatr sohasidan olingan bo'lib, u yerda ijtimoiy xulq-atvorning bir qator hodisalari uchun metafora sifatida ishlatilgan. Ilm-fan – har qanday davlatning bugungi kuni va kelajagini belgilaydigan muhim sohadir. O'zbekiston zamini jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyoti yo'nalishini ma'lum darajada belgilab bergan ulug' allomalari, buyuk mutafakkirlari bilan shuhrat qozongan.

Bugungi kunda ayollar - bu o'qituvchilar, olimlar, rahbarlar va siyosatchilar bo'lib, ular ikki tomonlama faoliyatni, ya'ni professional va oilaviy faoliyatni amalga oshirish, gender tengligiga erishish, jamiyatda o'ziga bo'lgan ishonch tuyg'usini shakllantirishi lozim.

Hozirda, ta'lim jarayonida pedagogik innovatsiyalardan samarali foydalanish jahon taraqqiyotining muhim global yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Mamlakatimizda modernizatsiya jarayonlarining jadallashuvi ta'lim tizimiga yangiliklarni muntazam va tizimli ravishda joriy etishni taqozo qilmoqda. Shu bilan birga, o'qitishning mazmuni, shakl va metodlarini yangilash hamda zamonaviy pedagogik vositalarni keng qo'llash bo'yicha ilmiy-tadqiqotlarning amaliyotga tatbiq etilish darajasi hozircha yetarli emasligi kuzatilmogda.

Xalqaro tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, masalan, Finlyandiya ta'lim tizimida o'quv jarayoni o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, bunda o'qituvchilar yangicha metodlarni sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy etishda keng erkinlikka ega. Singapur ta'limida esa fan va texnologiyalarni integratsiya qilish, shuningdek, ta'lim jarayoniga raqamli platformalarni joriy etish orqali o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Janubiy Koreya misolida esa ta'limda innovatsiyalar o'qituvchilar malakasini uzluksiz oshirish bilan chambarchas bog'lanib, pedagoglar faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan.

Gender tengligi ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalar bir xil huquqlar, imkoniyatlar va himoyalardan foydalanadigan vaziyat sifatida aniqlanadi (YUNICEF, 2011). Bu inson huquqlarining asosiy prinsipi va o'z-o'zidan qimmatli maqsad bo'lib, ayollar va erkaklar o'zlarining to'liq potentsiallarini, inson huquqlari va qadr-qimmatini ro'yobga chiqarish, iqtisodiy ijtimoiy madaniy va siyosiy rivojlanishga hissa qo'shish va yoki undan foyda olish uchun teng sharoit, muomala va imkoniyatlar hisoblanadi (YUNESKO, 2009). Gender tengligi umuminsoniy huquq va asosiy erkinliklarni himoya qilish uchun zarurdir, (YUNESKO, 2012), shuningdek, kuchli rivojlanish tezlatuvchisidir (Msoffe, 2016)

Oliy ta'lim tizimida gender tengligi tushunchasi faqatgina ayollarni erkaklar bilan tenglashtirish emas, balki ikkala jinsning imkoniyatlarini cheklaydigan stereotiplarni bartaraf etishga qaratilgan yondashuvni anglatadi. Bunday yondashuv ta'lim jarayonini boyitadi, ta'lim oluvchilarga kengroq imkoniyat yaratadi hamda qizlar va o'g'il bolalarga har qanday gender stereotiplaridan xoli holda sifatli ta'lim olish imkonini beradi. Ta'lim jarayonida gender tengligi — jarayon va natijalarda o'quvchilarga bir xil imkoniyat, teng muomala va

adolatli sharoit taqdim etilishini ta'minlash demakdir (YUNESKO, 2009 va Msoffe, 2016). Xalqaro tashkilotlar tomonidan 2002 yilda qabul qilingan Milliy ta'lim va tarbiya siyosati, 1999 yilgi Oliy ta'lim milliy siyosati ta'limning turli darajalarida gender tengligi va tenglikka erishish uchun muhim yo'nalishlarni belgilaydi (Onsongo 2009). Ayni vaqtda xotin-qizlarning ilm-fanga yo'naltirishning jinsga oid o'ziga xosligini ochib beruvchi, jamiyat hayotidagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda an'anaviy gender stereotiplarni yengib o'tishga intilishni ifodalovchi nazariy-tahliliy ishlar ham, amaliy ishlanmalarni yaratishga qaratilgan chora tadbirlarni yetarli, deb bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan, gender tengligini oliy ta'limda ta'minlash masalasi nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish, balki milliy ilm-fan taraqqiyoti va jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun ham dolzarb masala hisoblanadi.

Mamlakatimizda 2030-yillga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilingan bo'lib, strategiyadan ko'zlangan asosiy maqsad – irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat, qabul qilingan strategiyada quyidagi asosiy vazifalar qamrab olingan:

xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish;

jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan hamda sport munosabatlarida xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ishtirok etishlarini qo'llab-quvvatlash, qaror qabul qilishda ularning yetakchilik qilishlari uchun teng imkoniyatlarni yaratish;

xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq salbiy qarashlarni o'zgartirish;

aholi bandligi sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun kafolatlangan teng huquq hamda imkoniyatlarni, shuningdek, munosib ish o'rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish;

xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida o'qishga bo'lgan imkoniyatlarini rag'batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini yuksaltirish;

odam savdosi va majburiy mehnatga qarshi kurashish, tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo'yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish;

oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolarining mas'ulligini oshirish, erta nikoh, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish;

gender tenglik tamoyillarini ilgari surishda, xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarini teng amalga oshirishda budjetni rejalashtirish, gender masalalarini budjet jarayonlariga integratsiyalash, gender statistikasi yuritilishini takomillashtirish;

gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish milliy maqsadlariga erishishda parlament, fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish;

gender tenglik sohasidagi xalqaro shartnomalardan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining milliy manfaatlariga mos bo'lgan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish [1].

Hozirgi kunda jamiyatimizda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning jadal amalga oshirilishi, ta'lim tizimining bosqichma-bosqich isloh qilib borilishi – murakkab ijtimoiy hodisa sifatida umume'tiborli va ma'naviy ziqiqishiga molik jarayonga aylandi, jumladan ta'lim tizimining umumiy maqsadi teng huquqli va demokratik davlat talabiga javob beruvchi jamiyat a'zolarini tarbiyalab berishdan iboratdir.

Genderli yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim muassasalarining vazifasi o'g'il bola va qiz bolaning har biri keyinchalik muvaffaqiyatga erishishi mumkin bo'lishi uchun ularning butun salohiyatini maksimal rivojlantirishdan iborat bo'lib, ushbu yondashuv asosidagi ta'lim jarayoni modelining tashkil etuvchilaridan biri ijtimoiylik tamoyilidir. Mazkur talab o'z-o'zini namoyon qilish, yaratish, odamlar bilan yaxshi munosabatlar bo'lish, o'g'il bolalar va qiz bolalarning faoliyatida optimal o'zaro munosabatlar orqali o'z-o'zini to'liq ochish uchun sharoit yaratilishini talab qiladi.

Hozirgi davrda ta'limga bo'lgan yondashuv tobora ijtimoiy xarakter kasb etmoqda. Buning sababi shundaki, ta'lim jarayoni nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatda to'plangan bilim va qadriyatlarini avloddan-avlodga uzluksiz o'tkazish bilan chambarchas bog'liqdir. Mashhur fransuz sotsiologi E. Dyurkgeymning ta'kidlashicha, ta'lim jamiyat hayotida bir qator asosiy ijtimoiy vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, ijtimoiylashtirish va ijtimoiy nazorat funksiyasi — ta'lim jarayoni orqali shaxs motivatsiyani ichkilashtiradi, xulq-atvor normalarni o'zlashtiradi, jamiyat tomonidan qabul qilingan hayotiy pozitsiyani shakllantiradi va natijada qonunlarga itoatkor, funksional savodli fuqarolarni tarbiyalaydi.

Ikkinchidan, kasbiy tanlov funksiyasi — ta'lim insonning qaysi kasbiy faoliyat sohasiga moyilligi borligini aniqlashga, shuningdek, unga tegishli tanlov vositalarini egallashga yordam beradi. Bu esa ta'limning mehnat bozoridagi o'rni va ahamiyatini belgilab beradi.

Uchinchidan, ijtimoiy tanlov funksiyasi — ta'lim shaxsni muayyan ijtimoiy guruhga tayinlash va uning ijtimoiy maqomini belgilashda muhim mexanizm sifatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, jamiyatning ijtimoiy-madaniy o'zgarishi funksiyasi — ta'lim jamiyatning madaniy taraqqiyotida eng muhim belgilovchi omil bo'lib, u orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlar shakllanadi, yangilanadi va mustahkamlanadi.

Shunday qilib, Dyurkgeym konsepsiyasidan ko'rinadiki, ta'lim jamiyat hayotida nafaqat bilim berish vositasi, balki shaxsni tarbiyalash, uni ijtimoiy muhitga moslashtirish va jamiyatning uzluksiz rivojlanishini ta'minlaydigan ijtimoiy institut sifatida ham xizmat qiladi.

Genderga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi - jinsga qarab shaxsning potensialini rivojlantirishdagi an'anaviy madaniy cheklovlarni yo'q qilish, tushunish va maksimal darajada o'zini-o'zi anglash va bu jarayonda qizlar va o'g'il bolalarning qobiliyatlarini ochish uchun sharoit yaratishdir.

A.Guterrish ta'kidlaganidek, "Jamiyatimizda bir kun kelib chinakam gender tenglikka erishishning yagona yo'li — bu, avvalo, ta'lim tizimlarimizda gender tengligini ta'minlashdan boshlashdi". Biroq, genderga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishda juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelinadi.

I.I. Yukina oliy ta'lim tizimida genderga yo'naltirilgan ta'limning tahlilini taqdim etadi. Gender ta'limidagi muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, hal qilinmagan bir qator jiddiy muammolarni ta'kidlaydi, ular orasida:

1) Tashkiliy muammolar, turli yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash uchun ta'lim standartiga gender kurslarini «moslashtirish» muammolari, shuningdek, qo'shimcha kasbiy ta'lim sifatida ixtisoslashtirilgan gender kurslarini loyihalash.

2) Dars mazmuni va o'qitish sifati muammosi.

3) Fandagi yangi yo'nalish sifatida gendershunoslikning kognitiv holati va ilmiy bilish usuli sifatida gender yondashuvi haqida ilmiy fikr yuritilmasligi muammosi.

Gender pedagogikasi o'quv jarayonini loyihalash va o'g'il va qizlarning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlarni yaratishga asoslangan bo'lib, uning uslubiy asosi feministik pedagogika tamoyillari bo'lib, u talabaga yo'naltirilganlikni, ta'lim jarayonining demokratik tuzilishini ulug'laydi va gender deyarli har qanday fanning ijtimoiy kategoriyasiga aylanadi.

**Xulosa.** Umuman olganda, ta'limda gender nazariyasini tahlil qilib, biz shaxsning ijtimoiy rivojlanishi

muammosini ta'lim muloqoti jarayonida gender ijtimoiy moslashuvi muammosi sifatida aniqlashimiz va quyidagi qarama-qarshiliklarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

1. Ta'limiy: o'qitishdagi kommunikativ o'zaro ta'sir gender ijtimoiylashuvi tamoyillarini takrorlamaydi, bu tenglik qadriyatlariga ega bo'lgan gender o'ziga xosligini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

2. Tarbiyaviy: o'qitishda shaxsning ijtimoiy moslashuvi, uning kasbiy yo'nalishiga ta'sir qiladi, o'z-o'zini namoyon qilishning gender omilini hisobga olmaydi.

3. Uslubiy: gender ta'lim tizimining o'rnatilgan uslub va metodologiyasiga qarshi chiqqan holda, ta'limning ijtimoiy sifatini oshirish zarurligini nazarda tutadi. Yuqoridagi qarama-qarshiliklar jamiyatning gender ta'limiga bo'lgan zamonaviy talablariga muvofiq pedagogik voqelikni uslubiy o'zgartirish muammosi sifatida ta'limdagi muloqotga gender yondashuvining asosiy muammosini ko'rsatadi.

#### ADABIYOTLAR

1. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida. <https://lex.uz/docs/-5466673>
2. Ходжаева Н. Статус женщины Средней Азии в период функционирования шелкового пути //Мат.науч.-теор.конф. // Сборник докладов, Ташкент, 2006. – 171 б
3. Ортиқов Н. Миллий ва умуминсоний кадрятлар асосида ўқувчи шахсини ахлоқий шакллантириш.: Пед.фан.док. ... дисс.- Т., 2000,- 305 б.
4. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish to'g'risida Konvensiya URL: [http://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/cedaw.shtml](http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/cedaw.shtml)
5. Genderga yo'naltirilgan ta'lim. Internet manba.